BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

ORGANIZATIONAL-ECONOMIC MECHANISMS FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP

Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich
Independent Researcher, Tashkent State University of Economics.
r.raxmanov@tsue.uz
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21322305

Annotation: The article develops organizational-economic mechanisms for enhancing education service quality in the development of youth entrepreneurship. The author's «3T model» (Entrepreneurship–Experience–Education service quality) is transformed from a theoretical concept into a practical institutional mechanism, defining participants, instruments, and key performance indicators (KPIs) for each stage. Drawing on foreign experience (Germany, Isenberg‘s ecosystem theory), four practical integration directions are substantiated: dual education, business incubation, adaptation of education programs to regional characteristics, and a monitoring system. A phased implementation roadmap for the mechanisms is proposed.

Keywords*:* youth entrepreneurship, education service quality, organizational-economic mechanism, «3T model», dual education, business incubation.

Annotatsiya: Maqolada yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqiladi. Muallifning «3T modeli» (Tadbirkorlik–Tajriba–Ta’lim xizmatlari sifati) nazariy kontseptsiyadan amaliy institutsional mexanizmga aylantirilib, uning har bir bosqichi uchun ishtirokchilar, instrumentlar va muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari (KPI) belgilanadi. Xorijiy tajriba (Germaniya, Isenberg ekotizimi nazariyasi) asosida to‘rtta amaliy integratsiya yo‘nalishi - dual ta’lim, biznes-inkubator, ta’lim dasturlarini mintaqaviy xususiyatga moslashtirish va monitoring tizimi - nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi. Mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etishning yo‘l xaritasi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar tadbirkorligi, ta’lim xizmatlari sifati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, «3T modeli», dual ta’lim, biznes-inkubator.

Аннотация: В статье разрабатываются организационно-экономические механизмы повышения качества образовательных услуг в развитии молодежного предпринимательства. Авторская «модель 3Т» (Предпринимательство–Опыт–Качество образовательных услуг) преобразована из теоретической концепции в практический институциональный механизм с определением участников, инструментов и показателей эффективности (KPI) для каждого этапа. На основе зарубежного опыта (Германия, теория экосистемы Айзенберга) обоснованы четыре практических направления интеграции: дуальное образование, бизнес-инкубация, адаптация образовательных программ к региональной специфике и система мониторинга. Предложена поэтапная дорожная карта внедрения механизмов.

Ключевые слова: молодежное предпринимательство, качество образовательных услуг, организационно-экономический механизм, «модель 3Т», дуальное образование, бизнес-инкубация.

KIRISH

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim xizmatlari sifatining ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, bu asoslarni real amaliyotga tatbiq etadigan aniq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yo‘qligi ko‘p hollarda ilg‘or g‘oyalarning qog‘ozda qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda. D. Isenberg ta’kidlaganidek, tadbirkorlik ekotizimi olti o‘zaro bog‘liq domendan - siyosat, moliya, madaniyat, institutsional qo‘llab-quvvatlash, inson kapitali va bozordan - iborat bo‘lib, ta’lim muassasalari aynan inson kapitali domeni orqali ekotizimning tarkibiy qismiga aylanadi **[1]**. Biroq bu nazariy qoidaning o‘zi ta’lim va tadbirkorlik o‘rtasidagi institutsional bog‘lanishni avtomatik ta’minlamaydi - bu bog‘lanishni amaliy mexanizmga aylantirish alohida ilmiy-uslubiy vazifa hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta’lim-tadbirkorlik integratsiyasining eng barqaror institutsional shakli - ta’limni bevosita ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lovchi mexanizmlardir. Xususan, Germaniyaning dual ta’lim tizimi 1969-yildagi maxsus qonun bilan mustahkamlangan bo‘lib, o‘quvchi vaqtining taxminan 70 foizini korxonada amaliy mashg‘ulotlarga bag‘ishlaydi, bu esa nazariya va amaliyotning institutsional jihatdan uzviy bog‘lanishini ta’minlaydi **[2]**. Shunga o‘xshash tizimli yondashuvlar boshqa mamlakatlarda ham turlicha institutsional shakllarda namoyon bo‘lgan, biroq ularning birortasini ham o‘zgarishsiz boshqa mintaqaga ko‘chirib bo‘lmaydi - har bir ekotizim mahalliy sharoitlarga moslab qurilishi lozim **[1]**.

O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli davlat dasturlari qabul qilingan bo‘lib, ular moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlashning yaxlit tizimini shakllantirmoqda **[3]**. Biroq mavjud mexanizmlar, qoida tariqasida, umumrespublika miqyosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ekologik inqiroz sharoitidagi mintaqalarning o‘ziga xos ehtiyojlarini to‘liq hisobga olmaydi. Bunday sharoitda ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan mexanizmlar nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki aniq ishtirokchilar, instrumentlar va muvaffaqiyat ko‘rsatkichlariga (KPI) ega bo‘lgan amaliy institutsional loyihaga aylantirilishi zarur.

Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ushbu maqolada muallifning ilgari nazariy asoslangan «3T modeli» amaliy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga aylantiriladi, uning institutsional tarkibi, integratsiya yo‘nalishlari va bosqichma-bosqich joriy etish yo‘l xaritasi ishlab chiqiladi.

Shu sababli maqolaning maqsadi - yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini, ularning institutsional tarkibini va amalga oshirish bosqichlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

D. Isenberg va E. Stam tadbirkorlik ekotizimini olti domenga ajratib, uni mahalliy sharoitga moslab qurish zarurligini asoslashgan **[1]**. D. Kuratko, A. Fayolle va H. Neck tadbirkorlik ta’limini amaliyotga asoslangan metodga aylantirish zarurligini isbotlashgan **[4]**, Germaniyaning dual ta’lim tizimi esa bu integratsiyaning eng samarali institutsional modeli sifatida tan olingan **[2]**. Mahalliy olimlardan Sharipov Q.A., Kalonov M.B. va Mustafakulov Sh.I. ta’lim xizmatlari sifati masalalarini tadqiq etishgan **[5]**, biroq bu bog‘liqlikni aniq ishtirokchilar va KPI ko‘rsatkichlariga ega amaliy mexanizmga aylantirish masalasi o‘rganilmagan. Mexanizmlarni izchil takomillashtirish uchun W.E. Demingning PDCA yopiq tsikli konsepsiyasidan foydalaniladi **[6]**. Shunday qilib, ta’lim-tadbirkorlik bog‘liqligini amaliy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga aylantirish masalasi ochiq qolmoqda - mazkur bo‘shliqni to‘ldirish ushbu maqolaning vazifasidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning amaliy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, uch bosqichda quriladi. Birinchi bosqichda muallifning ilgari nazariy asoslangan «3T modeli» institutsional loyihalashtirish usuli orqali amaliy mexanizmga aylantiriladi, uning har bir bosqichi uchun ishtirokchilar, instrumentlar va muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari (KPI) aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda xorijiy tajriba (Germaniyaning dual ta’lim tizimi, Isenberg ekotizimi nazariyasi) qiyosiy tahlil metodi orqali o‘rganilib, ularning mintaqaga moslashtirilgan qo‘llanilish yo‘nalishlari - dual ta’lim, biznes-inkubator, ta’lim dasturlarini mintaqaviy xususiyatga moslashtirish va monitoring tizimi - tizimli yondashuv asosida asoslanadi.

Uchinchi, yakuniy bosqichda mexanizmlarni izchil takomillashtirish uchun W.E. Demingning «reja–bajar–tekshir–tuzat» (PDCA) yopiq boshqaruv tsikli metodologik asos sifatida qo‘llaniladi, mexanizmlarni joriy etishning bosqichma-bosqich (pilot → kengaytirish → institutsionalizatsiya) yo‘l xaritasi loyihalashtirish usuli orqali belgilanadi.

Tahlil va natijalar

Muallifning ilgari nazariy asoslangan «3T modeli» ushbu tadqiqotda amaliy institutsional mexanizmga aylantirildi. Modelning uchta bosqichi - tadbirkorlik, tajriba va ta’lim xizmatlari sifati - o‘zaro ketma-ket zanjir sifatida ishlashi asoslandi: birinchi bosqichdagi institutsional o‘zgarish ikkinchi bosqich uchun tadbirkorlik kompetensiyasiga ega bitiruvchilar yetkazib beradi, ikkinchi bosqichdagi amaliy tajriba esa uchinchi bosqich uchun "tayyor kadr" shakllantiradi.

Ushbu zanjir mantig‘iga mos ravishda to‘rtta amaliy integratsiya yo‘nalishi ishlab chiqildi: birinchi yo‘nalish - Germaniya tajribasi asosida dual ta’lim tizimini joriy etish, bunda o‘quv vaqtining katta qismi mahalliy korxonalardagi amaliyotga ajratiladi; ikkinchi yo‘nalish - Isenberg ekotizimi nazariyasiga tayangan holda OTM ichida biznes-inkubator va tadbirkorlik markazlarini tashkil etish; uchinchi yo‘nalish - ta’lim dasturlarini mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish; to‘rtinchi yo‘nalish - integratsiya jarayonini raqamli monitoring tizimi orqali muntazam kuzatib borish.


1-jadval.

Ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning to‘rt integratsiya yo‘nalishi

Yo‘nalish	Asosiy instrument	Mas'ul tashkilotlar	Kutilayotgan natija
Dual ta’lim	Amaliyot shartnomalari (korxona + ta’lim muassasasi)	Ta’lim muassasalari, mahalliy korxonalar	Amaliy ta’lim ulushining sezilarli o‘sishi
Biznes-inkubator	Ko-vorking maydoni, mentorlik tarmog‘i, boshlang‘ich fond	OTM, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg‘armasi	Yangi startaplar va yosh tadbirkorlar soni o‘sishi
Mintaqaviy moslashtirish	Ta’lim dasturlariga mintaqaga xos modullar kiritish	Ta’lim va fan vazirligi hududiy bo‘linmalari	Ta’lim mazmunining mahalliy ehtiyojga mosligi
Raqamli monitoring	Ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida hisoblovchi tizim	Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmalari	Boshqaruvning shaffofligi va o‘z-o‘zini tuzatishi

Manba: muallif ishlanmasi.

Modelning uch bosqichli tuzilishi va uni bir-biriga bog‘lovchi mantiq quyidagi sxemada aks ettirilgan.



1-rasm. «3T modeli»ning to‘rt integratsiya yo‘nalishi bilan institutsional mexanizmga aylantirilishi

Sxemadan ko‘rinib turibdiki, birinchi uchta yo‘nalish (biznes-inkubator, dual ta’lim, mintaqaviy moslashtirish) modelning uch bosqichiga mos ravishda biriktirilgan bo‘lib, yopiq tsikl shaklida bir-birini boyitib boradi, to‘rtinchi yo‘nalish - raqamli monitoring - esa butun jarayonni kuzatib, uning o‘z-o‘zini tuzatishini ta’minlaydi.

Mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish uch bosqichda rejalashtirildi: birinchi (pilot) bosqichda tanlangan 2–3 tumanda dual ta’lim shartnomalari va biznes-inkubator sinovdan o‘tkaziladi; ikkinchi bosqichda pilot natijalari tahlil qilinib, mexanizm butun mintaqaga kengaytiriladi; uchinchi, yakuniy bosqichda mexanizm doimiy davlat dasturi maqomiga o‘tkazilib, "reja–bajar–tekshir–tuzat" (PDCA) yopiq boshqaruv tsikli orqali muntazam takomillashtiriladi. Bunday bosqichlilik riskni kamaytiradi va har bosqichdagi tajribani keyingisida qo‘llash imkonini yaratadi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, muallifning ilgari nazariy asoslangan «3T modeli» ushbu maqolada muvaffaqiyatli ravishda amaliy institutsional mexanizmga aylantirildi: modelning uch bosqichi bir-birini boyituvchi yopiq tsikl sifatida qayta talqin qilinib, har biriga mos to‘rtta aniq integratsiya yo‘nalishi - dual ta’lim, biznes-inkubator, mintaqaviy moslashtirish va raqamli monitoring - ishlab chiqildi. Xorijiy tajriba (Germaniyaning dual ta’lim tizimi, Isenberg ekotizimi nazariyasi) bu mexanizmning nazariy va amaliy asoslanganligini tasdiqladi.

Shu bilan birga, mexanizmning nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgani uning amaliyotda avtomatik samara berishini kafolatlamaydi. Shu sababli quyidagi takliflar shakllantirildi: birinchidan, dual ta’lim yo‘nalishini birinchi navbatda mintaqaning tabiiy ustunligiga ega sohalarda (qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash) pilot tarzda joriy etish; ikkinchidan, OTM negizida biznes-inkubatorlarni tashkil etishda ularni passiv ta’lim maskani emas, balki tadbirkorlik ekotizimining faol ishtirokchisiga aylantirish; uchinchidan, ta’lim dasturlarini mintaqaviy xususiyatga moslashtirishda mahalliy ehtiyojlarni davriy ravishda qayta baholab borish; to‘rtinchidan, raqamli monitoring tizimini alohida qo‘shimcha emas, balki barcha yo‘nalishlarning ajralmas qismi sifatida loyihalash, bu esa mexanizmning o‘z-o‘zini tuzatish qobiliyatini ta’minlaydi; beshinchidan, mexanizmlarni bir vaqtda emas, balki pilot - kengaytirish - institutsionalizatsiya tartibida bosqichma-bosqich, "reja–bajar–tekshir–tuzat" (PDCA) tsikli asosida joriy etish.

Ishlab chiqilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm Orolbo‘yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning amaliy, izchil va o‘z-o‘zini

takomillashtiruvchi yechimini taqdim etadi hamda mintaqaviy davlat dasturlarini ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isenberg D.J. How to Start an Entrepreneurial Revolution / D.J. Isenberg // Harvard Business Review. – 2010. – Vol. 88, №6. – P. 40–50; Stam E. Entrepreneurial Ecosystems and Regional Policy: A Sympathetic Critique / E. Stam // European Planning Studies. – 2015. – Vol. 23, №9. – P. 1759–1769.
2. Germaniya Federativ Respublikasi. Kasb-hunar ta'limi to‘g‘risidagi Qonuni (Berufsbildungsgesetz), 1969-yil (2005-yil tahriri) [Elektron resurs]. – URL: https://www.bibb.de (murojaat qilingan sana: 2026.07.04).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori: 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – 2025. – №7. – 62-modda.
4. Kuratko D.F. Entrepreneurship Education: Emerging Trends and Challenges for the 21st Century / D.F. Kuratko. – Coleman Foundation White Paper, 2003; Fayolle A. Assessing Entrepreneurship Education Programmes: A New Methodology / A. Fayolle, B. Gailly // Journal of European Industrial Training. – 2008. – Vol. 32, №7. – P. 569–593; Neck H. Entrepreneurship Education: Known Worlds and New Frontiers / H. Neck, P. Greene // Journal of Small Business Management. – 2011. – Vol. 49, №1. – P. 55–70.
5. Sharipov Q.A. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlik / Q.A. Sharipov. – Toshkent: TDIU, 2022. – 148 b.; Kalonov M.B. Ta'lim xizmatlari bozori va sifatini ta'minlash mexanizmlari / M.B. Kalonov. – Toshkent: TDIU, 2021. – 112 b.; Mustafakulov Sh.I. Ta'lim sifatini ta'minlash – oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili / Sh.I. Mustafakulov // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – №11–12. – B. 54–62.
6. Deming W.E. Out of the Crisis / W.E. Deming. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – 507 p.